ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANINING DOLZARBLIGI, AHAMIYATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Egamberdiyev Ilxomjon Yigitaliyevich, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Harbiy ta’lim fakulteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanining rivojlantirish va yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘quvchilarda Vatanga bo‘lgan ezgulik tuyg‘usini yaratish, itizomni mustahkamlash, jismoniy va ma’naviy salohiyatni rivojlantirish hamda kelajakda harbiy xizmatga tayyorlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy vatanparvarlik, harbiy xizmat, innovatsiya, ezgulik, vatanni sevish, ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik, fuqarolik ma’sulyatlilik, mardlik, fuqarolik burch, milliy g‘urur.

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы развития дисциплины “Начальная допризывная подготовка” и воспитания подрастающего поколения в духе военного патриотизма, воспитания у учащихся чувства добра к Родине, укрепления патриотизма, развития физического и духовного потенциала. и воспитания подрастающего поколения в духе патриотизма, воспитания у учащихся чувств гордость и подготовки к будущей военной службе.

Ключевые слова: военный патриотизм, военная служба, новаторство, доброта, любовь к Родине, просвещение, патриотизм, гражданская ответственность, мужество, гражданский долг, национальная гордость.

Abstract. This article highlights the issues of developing the discipline “Initial pre-conscription training” and educating the younger generation in the spirit of military patriotism, fostering students’ feelings of kindness to the Motherland, strengthening patriotism, and developing physical and spiritual potential. and educating the younger generation in the spirit of patriotism, fostering students' feelings of pride and preparing for future military service.

Key words: military patriotism, military service, innovation, kindness, love of the Motherland, enlightenment, patriotism, civic responsibility, courage, civic duty, national pride.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim sohasida kechayotgan islohotlar zamonaviy o‘qituvchidan nafaqat mustahkam bilim, balki kuchli kompetensiyalar, tafakkur moslashuvchanligi va ijodiy yondashuvni ham talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida “2030-yilgacha Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da ta’kidlanganidek, ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyati, shaxsiy mas’uliyati va zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, talabalarda pedagogik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida inter faol usullar va ta’lim texnologiyalarni qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik (CHQBT) – bu umumta’lim maktablari 10–11-sinflarida, shuningdek, o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan, chaqiruv yoshidagi yoshlar uchun mo‘ljallangan muhim fan hisoblanadi. Ushbu fan orqali yosh avlodga Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, fuqarolik mas’uliyati, harbiy xizmatga sadoqat, shuningdek, favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalari singdiriladi.

CHQBT nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg‘ulotlarni ham o‘z ichiga olib, yoshlarning harbiy sohaga qiziqishini oshirish, ularni jismoniy va psixologik jihatdan chiniqtirish, Vatan himoyasiga tayyor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur fan o‘quvchilarda Vatanga

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat, milliy qadriyatlarni qadrlash, shuningdek, jamiyat va davlat oldidagi fuqarolik burchini anglash kabi fazilatlarni mustahkamlaydi. Unda harbiy intizom, tartib, qat'iyatlilik, mas'uliyat, jamoaviylik kabi muhim insoniy xususiyatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. CHQBT fani doirasida olib borilayotgan mashg'ulotlar faqat auditoriya bilan chegaralanmay, balki sport musobaqalari, harbiy-sport estafetalar, harbiy qismlarga sayohatlar, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, qurol-aslahalardan foydalanish kabi amaliy tadbirlar orqali boyitib borilmoqda.

Fan samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar (virtual treninglar, multimedia vositalari, simulyatsiyalar) joriy etilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, harbiy qismlar, favqulodda vaziyatlar xizmatlari, mahallalar, yoshlar tashkilotlari bilan integratsiyalashgan loyihalarning tashkil etilishi va ularni nazorat qilish, yoshlarning ushbu fan orqali harbiy sohani chuqurroq tushunishiga xizmat qiladi. Rag'batlantirish tizimi – mukofotlar, diplomlar, faxriy yorliqlar, ommaviy tanlovlar orqali o'quvchilarni harbiy xizmatga bo'lgan ijobiy munosabatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, mazkur fanni o'qitish jarayonida muayyan kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, CHQBT o'qituvchilarining qariyb 27 foizi mutaxassislikka ega emasligi o'quv jarayonining sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunga qo'shimcha ravishda, ko'plab maktablarda amaliy mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan texnik vositalar, poligonlar, simulyatsiya qurilmalari, qurol-aslaha maketlari va uslubiy qo'llanmalar yetishmasligi ta'kidlanmoqda.

Ayrim ijtimoiy qatlamlar orasida harbiy xizmatga nisbatan salbiy qarashlarning mavjudligi, yoshlarning motivatsiyasining sustligi, bu yo'nalishga bo'lgan qiziqishning pastligi ham muammo sifatida qaralmoqda. Shuningdek, ta'lim muassasalari bilan harbiy qismlar, favqulodda vaziyatlar xizmatlari va boshqa tegishli idoralar o'rtasidagi tashkiliy hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish zarur:

birinchidan, CHQBT o'qituvchilarining malakasini oshirish, ularga zamonaviy pedagogik va metodik yondashuvlarni o'rgatish bo'yicha tizimli kurslarni yo'lga qo'yish lozim.

Ikkinchidan, darsliklar va uslubiy materiallar bilan ta'minot darajasini yaxshilash, amaliy mashg'ulotlar uchun zarur texnik vositalarni yetkazib berish choralarini ko'rish muhim.

Uchinchidan, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilish, fan doirasidagi rag'batlantiruvchi usullarni kuchaytirish, ijtimoiy tarmoqlar va OAV orqali harbiy xizmatning ijobiy jihatlarini yoritish zarur.

To'rtinchidan, harbiy qismlar, mahalla va yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlikda integratsiyalashgan loyihalarni yo'lga qo'yish fan samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, ularda Vatanga sadoqat, milliy g'urur, jismoniy chiniqqanlik, psixologik barqarorlik va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bu fan orqali yosh avlodni harbiy sohada bilimli, jismonan sog'lom, ruhiy va ijtimoiy jihatdan tayyor shaxs sifatida voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, uning mazmunan boyitilishi, tashkiliy va metodik jihatdan takomillashuvi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasi" va "O'zbekiston

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

– 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim ta’limiy-mafkuraviy vositadir.

Adabiyotlar

1. Egamberdiyev I.Y. Development of professional competencies of pre-service military yducation students based on information and Communication Technologies // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, vol. 10, no. 3, 11 Mart. 2022, pp. 266-269.

2. Usmonov A.A. The role of social pedagogy in the development of feelings of love for the motherland and patriotism in students and schoolchildren // Innovation: the journal of social sciences and researches. 1.6 (2023): 171-174.

3. Botirov U.V. Mechanisms for increasing the noise resistance of analog blocks of information measuring systems // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, vol. 10, no. 5, 24 May. 2022, pp. 627-630.

4. Mirzayev Sh.T. The role and role of public schools in the preparation of senior students for military service // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, vol. 10, no. 3, 11 Mar. 2022, pp. 277-280.

5. Egamberdiyev I.Y. Development of professional competences of students of military education on the basis of information and communication technologies // Archive of conferences. – 2021. – C. 11-13.